UO‘K: 811.111 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a175**

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “FOOT/OYOQ” KONTSEPTINING NOMINATIV MAYDONI

НОМИНАТИВНОЕ ПОЛЕ “FOOT/OYOQ” В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

NOMINATIVE FIELD OF THE CONCEPT “FOOT/OYOQ” IN ENGLISH AND UZBEK

Mamadalieva Gulro‘ Ravshanovna[1]

[1]**Mamadalieva Gulro‘ Ravshanovna** – Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqola “foot/oyoq” nominativ maydonining lisoniy tasvirini, ingliz va o‘zbek tillarida ushbu maydonni tashkil etuvchi birliklarning xususiyatlari va o‘zaro aloqalarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Empirik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ifodaning semantik tuzilishi va lingvistik shakllari turli xalqlar tilida turlicha namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlarimiz ingliz va o‘zbek tillarida quyidagi verbalizatorlarni topish imkonini berdi: leksemalar (so‘zlar, frazeologik birliklar, maqollar), sintaksemalar (iboralar, gaplar, mikro va makromatnlar) va paralingvistik vositalar. Statistik va komponentli tahlillar shuni ko‘rsatdiki, so‘z birikmalari (frazemalar) dominant, frazeologik birliklar, gap va so‘zlar markaziy, morfemalar, matnlar, maqol va matallar, paralingvistik vositalar sohaning periferik zonasini egallaydi.

Natijalarga ko‘ra, ingliz va o‘zbek tillari tarixiy va milliy an’analarga asoslangan holda “foot/ oyoq” konseptini o‘ziga xos turkumlash va konseptuallashtirish usuliga ega va nominativ maydonni aniqlab olish uni tashkil qiluvchi birliklarning semantik munosabatlarini tadqiq qilishda birlamchi vazifadir, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Аннотация

Статья посвящена изучению языковой картины номинативного поля «foot/oyoq», характеристике и соотношению составных единиц поля в английском и узбекском языках.

Эмпирические наблюдения показали, что смысловая структура и языковые формы выражения различаются от народа к народу. Наши исследования позволили обнаружить в английском и узбекском языках следующие вербализаторы “foot/oyoq”: лексемы (слова, фразеологизмы, паремии), синтаксемы (словосочетания, предложения, микро- и макротексты) и паралингвистические средства. Статистический и компонентный анализ показал, что словосочетания (фраземы) занимают центр поля в качестве доминанты, фразеологизмы, предложения и слова – центральную, морфемы, тексты, пословицы и поговорки, паралингвистические средства – периферийную зону поля.

Результаты говорят о том, что английский и узбекский языки имеют свой собственный способ категоризации и концептуализации, основанный на исторических и национальных традициях и можно сделать вывод, что определение номинативного поля является первостепенной задачей при изучении семантических отношений составляющих его единиц.

Abstract

The article deals with the study of the linguistic picture of the nominative field “foot/oyoq”, characteristics and the relations of the constituent units of the field in English and Uzbek.

Empiric observations showed that the semantic structure and linguistic forms of expression differ from nation to nation. Our studies let us discover the following verbalizers in English and Uzbek: lexemes (words, phraseological units, paremies), syntaxemes (word combinations, sentences, micro and macro texts) and paralinguistic means. Among parts of speech the verb is considered to be the dominant in English and Uzbek.

Statistic and componential analysis showed that word combinations (phrasemes) occupy the center of the field as the dominant, phraseological units, sentences and words – the central, morphemes, texts, proverbs and sayings, paralinguistic means the periphery zone of the field. The results say that English and Uzbek languages have their own mode of categorization and conceptualization which is based on the historical and national traditions and we can conclude that determining the nominative field is the primary task in the study of the semantic relations of the units that make it up.

Kalit so‘zlar: *konsept, olamning lisoniy tasviri, nominativ maydon, maydon tarkibi, kalit so‘z-reprezant, derivatlar,leksik- semantik variantlar, semantik belgi,dominanta, maydonning markaziy va periferik a’zolarii, asosiyativ birliklar*

Ключевые слова: *концепт, языковая картина мира, номинативное поле, составляющие поля, ключевое слово-репрезант, дериваты, лексико-семантические вариации (ЛСВ), семантический признак (признаки), языковые и речевые единицы, доминанта, центральный и периферийные члены поля, асоссиативные единицы*

Key words: *concept, linguistic picture of the world, nominative field, field constituents, key word-representor, derivate, lexical-semantical variations (LSV), semantic attribute, language and speech units, dominant, central and periphery members of the field, associative units*

KIRISH

Maydon termini lingvistikaga aslida tabiiy va aniq fanlardan kirib keldi va bugunga kelib til va nutqqa oid hodisalarni o‘zaro aloqadorlikda va sistem munosabatlar doirasida o‘rganish har qachongidan ko‘ra dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib qoldi. Konseptning nominativ maydoni tuzilishi uning lingvokognitiv tahlilining birlamchi sharti hisoblanadi. Shu sabab tadqiq qilinayotgan

konseptning mazmuni va tuzilishining samarali va atroflicha aniqlanishi nominativ maydon tuzilishining qat'iyligi va izchilligiga bog'liqdir.(1:36)

Mazkur maqola hozirda kognitolog-lingvistlar diqqat e'tiborida bo'lgan konsept, uning lisoniy manzarasi, kontseptning nominativ maydoniga taalluqli qator masalalarni "foot/oyoq" konsepti nominativ maydoni misolida yoritib berishni maqsad qiladi. Maqola doirasida amalga oshiradigan tadqiqotimiz ham chog'ishtirma tilshunoslikka bevosita aloqador bo'lib, u "foot / oyoq" konseptining ingliz va o'zbek tillaridagi lisoniy manzarasi, lisoniy ifoda vositalarining maydoniy xususiyati, maydonni tashkillovchi birliklar o'rtasidagi sistem munosabatlar kabilarni tadqiq etishga bag'ishlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Lingvistik maydonning nazariy asoslari va tadqiq metodologiyasi rivoji xorijlik I.Grif, G.Ipsen, V.Portsig, A.Vayserber, V.G.Admoni, Sh.M.Guxman, Ye.I.Guliga, Ye.I.Shendels, A.V.Bondarko , Yu.N.Karaulov, N.I.Filichev va o'zbek tilshunos olimlar I.Qo'chqortoev, O'.Q.Yusupov, A.Nurmonov, Sh.Iskandarov, X.Ya.Xojaeva, G'.M. Xoshimov, M.A.Abduvaliev kabilar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar bilan bog'liq.

Semantik maydon termini G.Ipsen tomonidan ilmiy muloqotga kiritilgan bo'lib, u orqali umumiy ma'noga ega so'zlar majmui tushuniladi (2:225) Bunda maydon so'zlarning umumiy ma'nosi barobarida ma'lum bir so'z turkumiga mansubligi bilan izohlanadi. Sintaktik maydon konsepsiyasi V.Portsig va N.I. Filichevalar tomonidan asoslandi va rivojlantirildi. N.I.Filichevaning to'g'ri ta'kidlashicha, sintaktik maydon umumiy invariant semantik xususiyatlarga ega, ifoda planida bir-birlaridan farq qiluvchi, mazmun planida to'la yoki qisman muvofiq bo'lgan sintaktik birliklardir.(3:15) *Grammatik-leksik maydon* konsepsiyasi asoschilari Ye.V. Guliga va Ye.I. Shendels ushbu maydon tarkibiga ham leksik, ham grammatik vositalarni kiritadilar va ular o'rtasidagi munosabatlar ma'lum qonunlar asosida amalga oshishini ta'kidlaydilar (4:8-9). Kognitiv tilshunoslikda *nominativ maydon* deganda jamiyat rivojlanishining ma'lum bir davrida konseptning mazmunini predmetlashtiruvchi til birliklarining yig'indisi tushuniladi. (5:226).

U yoki bu semantik maydon konstituentlari tarkibidagi ma'lum sema(lar), strukturasi va vazifalari va stilistik xususiyatlariga ko'ra o'xshash va farqli jihatlarga ega bo'lishi mumkin. Yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olgan holda har qanday maydon tarkibini ikki yoki uchga bo'ladilar. Masalan, Ye.V. Guliga, Ye.I. Shendels, O'K.Yusupov, G'.M.Xoshimov, M.A.Abduvaliyevlar maydonni dominant, yadro, periferiya qismlariga ajratsalar, V.G.Admoni, A.V.Bondarko, B.Bo'ronov, M.M Guxmanlar maydonni yadro (markaz) va periferiya qismlarga bo'lishni taklif etadilar. A.P. Komarov maydonning periferiya qismini birinchi va ikkinchi periferiya qismlariga bo'lish mumkinligi haqida fikr bildiradi.(6:240)

Bizningcha, tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqib, har qanday maydonni uch yoki undan ortiq qismlarga ajratgan holda tadqiq etish orqali maydon va uning sathidan o'rin olgan turli til sathlariga mansub birliklarning u yoki bu semantikani ifoda etishi uchun qanchalik darajada xoslanganligi, qo'llanish ko'lami, yorqinlik darajasi va vazifasi haqida yanada aniqroq tasavvurlarga ega bo'lish mumkin deb o'ylaymiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Avvalo, oyoq konseptining kalit so'z - reprezantini aniqlab olamiz. Oyoq konseptining til egalari (bu o'rinda ingliz va o'zbek tillari) ongida predmetlashuvi *foot, leg, oyoq* leksemalari yordamida amalga oshadi. Bu so'zlar *oyoq* ma'nosini anchayin umumlashtirib ifodalaydilar. Ma'lum bir leksemalarning kalit so'z sifatida olinishi ularga o'xshash semali leksemalarga qaraganda ularning ishlatilish chastotasi ancha yuqoriligi bilan izohlanadi. Konseptning asosiy kalit so'z-reprezanti *foot/oyoq* hisoblanadi.

Oyoq inson hayoti va faoliyatining muhim ajralmas qismi sanalmish tana a'zosi bo'lib, usiz insonning xatti – harakatlari va faoliyatini to'laqonli tasavvur etish amri mahol. Chunki, oyoqlarimiz butun tanamizni ko'tarib turuvchi a'zodir. Oyoq orqali yurish, sakrash, o'tirish, yugurish kabi turli hayotiy muhim xatti-harakatlarni amalga oshiramiz. Oyoqlarimiz yordamida bir manzildan ikkinchi manzil tomon harakatlanamiz. Shuning uchun tayanch-harakat apparati bo'lmish oyoq juda ko'p xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi uchun ham harakat va holat, kuch-quvvat va kuchsizlik, salomatlik va kasallik, go'zallik va beso'naqaylik, baxt va baxtsizlik, omad va omadsizlik, hayot va mamot kabi tushunchalarni anglatuvchi ramzlardan biri hisoblanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarining turli izohli lug‘atlarida “oyoq” so‘ziga turlicha ta’rif va tavsiflar berilganligiga guvoh bo‘lamiz. O‘zbek tilidan farqli o‘laroq ingliz tilida “oyoq” so‘zining ikki xil shakli mavjud. Birinchi so‘z *leg* oyoqning quymichdan to barmoq uchigacha bo‘lgan butun qismini anglatsa, *foot* so‘zi anchayin tor bo‘lgan to‘piqdan pastki qismni anglatuvchi oyoq ma’nosiga ega. *Leg* – ushbu tana a’zosining barcha qismlari – oyoq (foot), to‘piq (ankle), boldir (lower leg), tizza (knee), son (thigh)ni umumlashgan holda anglatuvchi so‘zdir.

Oyoq konseptining ingliz tilidagi kalit so‘z-reprezantlaridan biri *leg* so‘zining Merriam Webster onlayn izohli lug’atining 2022 yildagi nashriga muvofiq 7 ta leksik-semantik variantlari mavjud:

1. **a**. Hayvon yoki insonning tanani ushlab turuvchi va yurishda foydalanuvchi a’zosi; umurtqaning sonning yuqori qismidan oyoq uchigacha bo‘lgan oraliqdagi bir juft a’zolaridan biri; *Your left/right leg, a broken leg, hind legs; a wooden leg; a leg injury; daddy-long-legs, foreleg, inside leg, leggy, legroom, sea legs,*

b. shunday a’zoning tizzadan butgacha qismi; c. go‘shti yeyiladigan hayvonning orqa oyoqlari: *frogs legs, chicken legs, leg of sth*; c. bo‘g‘imoyoqli xayvon yoki hasharot tanasidagi yurish yoki o‘rmalash uchun ishlatiladigan qismi -*a long-legged insect*;

2. a. tayanch yoki suyanch bo‘lib xizmat qiluvchi to‘siq yoki tayoq- *leg of a telescope, a table/chair leg; legged-three-legged stool*

b. ikki qismli yoki birlashgan buyumlarning qismlari- *leg of a compass*- kompasning millari;

3. a. kiyimning oyoqni to‘sib turuvchi qismi- *leg of trousers; a trouser/pant leg*

b. etikning qo‘nji;

4. bo‘ysunish, ta’zim- *to make a leg*- oyoqni bukib ta’zim qilmoq

5. uchburchakning gipotenuza bo‘lmagan yog‘i.

6. qism- *leg of journey/race; dog-leg*-yo‘lning keskin burilish qismi

a. qayiqda bir marta suzib o‘tilgan masofa;

b. sayohatning qismi;

c. poyganing bir bo‘limi;

d. o‘yin musobaqasining bir qismi- *leg of the competition;*

e. narsa yoki tizimning bir qismi.

8. (ko‘plikda)- uzoq muddatli aralashuv yoki qiziqish.

Leg so‘zi ishtirokidagi **so‘z birikmalari**ga misollar: *a leg to stand on, to have legs, artificial leg, back leg, leg break, leg spin, dog –leg, wooden leg, dead leg, bow legs, daddy-long-legs, fore leg, inside leg, sea legs, rare leg , leg warmer, leg work, spindly leg, tired legs, wobby legs, leg-room, leggins, leg pain, prosthetic legs, leg strength, leg veins, leg wound, legs splayed. leggy, legged, cross-legged, legless, leglike.*

Quyidagi birliklar esa biz tomonimizdan aniqlangan *leg* semali **frazeologik birliklar**ga mansubdir: *A leg to stand on (Not have a leg to stand on); To have legs; Anchor leg; To cost/pay an arm and a leg; As fast as your legs can carry you; Be on your (its) last legs; Pull smbs leg; Put best leg (foot) first (foremost, forward); Put (set) on his legs; Run off ones legs; Shake a leg; Shake a free leg; Show a leg!; Show leg; Stand on ones own legs; Stretch ones legs; Stretch (ones)legs according to the coverlet; Take to ones legs; Try it on the other leg; Leg and leg; Give leg bail; With your tail between your legs; Leg it; To have/get a leg-up on sb; Break a leg!, Hang a leg; Have ones legs over the harrows; Lose ones legs; Feel (or find) your legs (feet);*

Lekin izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, *foot* so‘zi ko‘p miqdordagi yasama so‘zlarga ega bo‘lgan bir paytda, *leg* so‘zi deyarli **derivatlar** hosil qilmaydi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘zbek tilida bunga o‘xshash funksiyalar uchun umumiy *oyoq* so‘zi ishlatilsa-da, ingliz tilida aynan *foot* oyoqning eng funktsional qismi hisoblanadi. Shuning uchun biz *foot* leksemasini oyoq konseptining ingliz tilidagi asosiy kalit so‘z- reprezanti deb hisoblaymiz.

“Oxford Advanced Learners Dictionary” lug‘atiga ko‘ra *foot* so‘zi 6 ta **leksik-semantik variant**ga (keyingi o‘rinlarda LSV) ega (7:615):

1. Oyoqning inson yoki hayvonni (tik) tutib turuvchi, to‘piqdan pastki qismi.

2. tik holatdagi biror narsaning quyi qismi;

3. to‘shakning oyoq tarafda joylashgan qismi;

4. dyum (33,48 sm) ga teng o‘lchov birligi;

5. (she’riyatda) metrning bazaviy birligini tashkil qiluvchi bo‘g‘inlar yig‘indisi;

6. (fe'l, og'zaki nutq) hisobni to'lamoq;

Biz tomondan *foot* so'zining **birinchi ma'nosi (LSV)** bo'yicha 130 ta **so'z va so'z birikmalari** aniqlandi. 1) **Ot** so'z turkumiga oid birikmalar: *footboard, footplate, footbridge, footpath, footstool, footswitch, foot peg, foot bag, foot well, footwraps, foot muff, foot pedal, foot race, foot doctor, foot lever, footsore, footfall, footstep, foot stool, footbath, football, foot fault, footmark, footprint, footman, footpad, footboy, clubfoot, foot-shaped, tube-foot, invertebrate foot, , goosefoot, cocksfoot, birdsfoot, coltsfoot, finfoot, lobefoot, foot injury, foot rule, foot passenger, barefoot, footbrake, footfall, foothold, footlights, footman, footrest, footrail, footrope, foot soldier, footstep, footsrtike, footway, footwork, footwear, footage, footer, footie, foot traffic, foot golf, foot fault, Foot Guards, clawfoot, bumblefoot, splay-foot, trench foot, foot rot, footsore, Athletes foot, foot-and-mouth decease, first-footer*, *footloose, footing, bigfoot, flatfoot, hotfoot, footedness;*

2) **Fe'l**ga oid birikmalar: *footslog, pussy-foot, foot-sie, side-foot, first-foot, out-foot.* Oyoq xarakati bilan bog'liq fe'llar: *go, come, walk, march, run, jog, jump, leap, hop, skip, crawl, dash, climb, stagger, tip-toe, crouch, sit, squat, kick, dance, tap, limp, paddle, kneel, trip, slip*

3) **Sifat**ga oid birikmalar: *footed, footless, barefoot, surefooted, footloose, foot worn, tenderfoot; bare-footed; clubfooted, four-footed, fast-footed, flat-footed, swift-footed, web-footed, sure footed,*

4) **Ravish**ga oid birikmalarlar: *footlessly, afoot, hotfoot, underfoot*

Ikkinchi LVS bo'yicha 6 ta **ot** so'z turkumiga oid - *footnote , foothill, footwall, footer, footstall, footing* kabi birikmalar topildi.

Uchinchi LVS bo'yicha 3ta **ot** so'z turkumiga oid birikmalar , ya'ni *footboard, footlocker, footstone*lar aniqlandi.

To'rtinchi LVSga ham **ot** so'z turkumiga oid 8 ta: *footage, foot rule, footer, foot of smth , foot pound, foot tone, foot lambert, foot candle* kabi so'z va birikmalarning mansubligini aniqlagan bo'lsak, beshinchi va oltinchi ma'nolarga tegishli birikmalar aniqlanmadi.

"Foot" nominativ maydoni **frazema**larga boyligi bilan ham e'tiborga loyiq. A.V.Kuninning "Англо-русский фразеологический словарь" nomli lug'atidan *foot* oti qo'llangan 116 ta turg'un birikmalar va ularning ma'nolarini tahlil etdik (8:580). Masalan, *be at sb feet*- o'zini birovning oyoqlari ostiga tashlamoq, yolvormoq; *be light on ones feet*- harakatlari yengil, chaqqon bo'lmoq ; *beneath (under) sbs foot (feet)*- birovning oyoqlari ostida bo'lmoq, birovga tobe bo'lmoq; *betray the cloven foot*-to reveal a devilish character or betray an evil purpose- iblisona fe'li yohud yovuz niyatini sezdirib qo'ymoq; *better the foot slip than the tongue trip*- maqol, ma'nosi- noto'g 'ri gapni aytgandan qoqilib yiqilgan durust; *black foot*- sovchi ; *carry (sweep) somebody off his foot*- birovni hayratga solmoq, lol qoldirmoq ; o'ziga maftun qilmoq; *catch by the foot*- oyog'idan tutib qolmoq, qochishga yo'l qo'ymaslik; *catch sb on wrong foot*- birovni noto'g'ri ishi ustida tutib olmoq ; *Christs foot!*- E, xudoyim! (his-hayajon, tajanglikni ifodalash uchun); *the cloven foot*- used as a symbol of the Devil, who is usually pictured with such hoofs- iblis (ayri tuyoq); *cold feet*- qo'rqoqlik, yuraksizlik ; *come in foot and hand*- bir vaqtning o'zida ham qo'li bilan zarba bermoq, ham olg'a qadam tashlamoq; crow's feet- ajinlar (ayniqsa ko'z atrofidagi); drag ones feet- oyog'ini sudrab bosmoq, imillamoq; *feet foremost*- tobutda yotmoq; *find the length of sb's foot*-birovning ojiz, nozik tomonini bilib olmoq ; *fleet of foot*- oyog'i chaqqon; follow sb at foot-birovning izidan tushmoq; *foot to foot*- bir biriga juda yaqin masofada ; *get off on the wrong foot*- boshidanoq yomon taassurot qoldirmoq, (ishni) omadsiz boshlamoq ; *get ones foot on the ladder*- omad sari ilk qadamni qo'ymoq; *get (have) the foot of sb*- birovdan o'zib ketmoq; *get the hares foot to lick*- eng oz ulushni olmoq va h.k.

Ingliz tiliga juda ko'p tillardan o'zlashgan oyoq semasiga ega **paremiya**lar mavjudligini aniqladik. Biz aynan ingliz xalq maqollari orasidan oyoq semasiga daxldor paremiyalarni keltirib o'tamiz: *He that goes barefoot must not plant thorns*- Yalang oyoq yuradigan odam tikon ekmaydi; *Spring has come when you can put your foot on three daisies*- (Uchta) moychechakka oyoq qo'yganingda bahor kelgan bo'ladi (Qishning bir kunidan qo'rq); *One foot is better than two crutches*- Ikkita qo'ltiqtayoqdan bitta oyoq yaxshi; *You can't steal second base with your foot on first*- Oyog'ing birinchi maydonda turganda ikkinchi maydonni egallay olmaysan (Tavakkal qilmasang omadga erisholmaysan); *Diseases come on horseback, but steal away on foot*- Kasallik ulovda kelib, piyoda ketadi. (Kasallik tez kelib, sekin ketadi); *If you keep your mouth shut, you won't put your foot in i*t- Og'zingni yumsang qovun tushirmaysan; *On an unknown path every foot is*

slow- Notanish so‘qmoqda hamma oyoq ham sekin yuradi; *Misfortunes come on wings and depart on foot*- Omadsizlik uchib kelib, piyoda ketadi ; *Keep something for the sore foot*- Oyoq og‘rig‘iga biror narsa asrab qo‘y; *He who wants a mule without fault, must walk on foot*- Nuqsonsiz xachir izlagan piyoda qoladi; *Better cut the shoe than pinch the foot*- Oyog‘ingni siqqanidan poyabzalingni qirqqaning afzal; *A slip of the foot and you may soon recover, but a slip of the tongue you may never get over*- Oyog‘ing sirpansa o‘rningdan turib ketarsan, lekin tiling sirpansa boshingga yetarsan; *Always put your best foot forward*- Yaxshi niyat yarim mol; *Do not put your foot further than you can draw it back again*- Oyog‘ingni qaytarib ololmaydigan darajada cho‘zma*; Keep your foot on the mark*- Oyog‘ingni yerdan uzma; *Never tell your enemy that your foot aches*- Dushmanga oyog‘ing og‘rishini aytma; *There is no better manure than the farmer's foot*- Yer uchun dehqonning oyog‘idan yaxshiroq o‘g‘it yo‘q; *The head and feet keep warm, the rest will take no harm*- Bosh va oyoq issiq saqlansa hamma a’zo sog‘ bo‘lar ; *Where your will is ready your feet are light*- Xohishing bo‘lsa oyog‘ing chaqqon bo‘lar ; *The peacock has fair feathers, but foul feet*- Tovusning patlari jilokor, biroq oyoqlari kir (Tashi yaltiroq, ichi qaltiroq).

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning 1981 yilgi nashriga ko‘ra o‘zbek tilida *oyoq* leksemasining 5 ta leksik semantik variantlari mavjud (9:522) :

1. Odam, hayvon, qush va umuman jonli organizmlar gavdasining tayanib turishi va yurishi yoki o‘rmalashi uchun xizmat etadigan a’zo. *Chap oyoq, o‘ng oyoq. Oyoqli- oyog’i bor*. *To‘rt oyoqli hayvon. Uzun oyoqli chigirtka. Oyoqlab*- ikki oyoqlab- ikkala oyoq bilan. *Oyoqlanmoq*- bosh ko‘tarmoq, qo‘zg‘almoq, qarshi chiqmoq. *Oyoqlantirmoq*- qarshi qo‘ymoq ;

2. Stol, stul, so‘ri, karavot kabi buyumlarning yerga tayanib turadigan qismi, poyasi. *oyoqli*- oyog‘i bor, poyali, tagida ko‘tarib turadigan qismi bor- *ikki oyoqli skameyka, uch oyoqli stul, cho‘yan oyoqli pechka.*

3. Oxir, odoq, chet, chekka, quyi tomon, etak. *Ekinzorning oyog‘i, yerning oyog‘i; oyoqlamoq*- yerning oyoq tomoniga, etagiga yetib bormoq.

4. Uyning, xonaning eshikka yaqin o‘rni; poygak; *ant.* to‘r

5. Kosa, idish, qadah.

1- ma’noga doir quyidagi **so‘z birikmalari** aniqlandi: *Oyoq ostida* (ravish)- 1) yurish, qadam bosish lozim bo‘lgan joyda, odamlarning yo‘li ustida; 2) har qadamda. 3) (ko‘chma) poymol bo‘lgan bir holatda. *Oyoq bosmoq* (fe’l)- 1) qadam tashlamoq, yurmoq; 2) (ko‘chma) o‘ylab, mulohaza bilan ish tutmoq, masalan: *Oyog’ingni bilib bos!;* 3) biror joyga bormoq, kelmoq. *Oyoq osti bo‘lmoq*- 1. toptalmoq, ezilmoq, bosilmoq, poymol bo‘lmoq, bosib-yanchib tashlanmoq. *Oyoq osti qilmoq* (fe’l)- toptamoq, ezmoq, poymol qilmoq, bosib-yanchib tashlamoq. *Oyoqqa bosmoq* (fe’l) - 1) yura boshlamoq (yosh bola yoki bemor haqida); 2) (ko‘chma) yo‘lga, izga tushmoq, tartibga tushib olg‘a bosmoq, rivojlana boshlamoq. *Oyoqqa bostirmoq* (fe’l) 1) oyoqqa turg’izmoq; 2) (ko‘chma) davolab, yurgizib yubormoq; 3) (ko‘chma) yo‘lga, izga solib, rivojlantirib yubormoq. *Oyoqqa turmoq* (fe’l) - 1) o‘rnidan turmoq;

2) (ko‘chma) bosh ko‘tarmoq, qo‘zg‘almoq, qarshi chiqmoq, oyoqlanmoq;

3) (ko‘chma) kasaldan tuzalib, yurib ketmoq. 4) (ko‘chma) yo‘lga, izga tushmoq, yaxshilanmoq. *Oyoqqa turg‘izmoq (oyoqqa qo‘ymoq)* (fe’l)- o‘rnidan turg’izmoq. *Oyoq ustida* (ravish)- tikka turgan holda. *Oyoqda (oyoq ustida, oyoq uzra) turmoq* (fe’l)- tik(ka) turmoq. 2) o‘zini tutib (tik holatda) turmoq. *Oyoqdan yiqitmoq (yoki yiqmoq)* (fe’l)- 1) ag‘anatmoq, yiqitmoq; 2) (ko‘chma) ishdan, izdan chiqarmoq, ishni buzmoq. *Oyoqdan qolmoq* (fe’l)-yurolmaydigan bo‘lib qolmoq, bir joyda o‘tirib qolmoq (qarilik, xastalik, bedarmonlik sababli). *Oyoqyalang* (ravish, sifat*)*- oyoq kiyimsiz. Ko‘rib turganimizdek, ushbu so‘z birikmalarining aksariyati sof ma’no bilan birga ko‘chma ma’noga ham ega.

1-ma’no ishtirokida aniqlangan **otlar**: *quymich, son, boldir, tiz, tizza, tizzaning ko‘zi, to‘piq, to‘piq o‘yini, pay, oshiq, but (put), tovon, kaft, panja, barmoq, tirnoq, tuyoq, old oyoq, orqa oyoq, qadam,qadamgoh, qadamjoy, qadam olish, odim, poy, poyqadam, poyandoz, poycha, hoki poy, poyabzal, poyabzalchilik, poyabzalchi, poyga, poydor, poyma-poy, poytesha, chop-chop, chopqirlik, chopovul, oyoq kiyim, uchoyoq, oyoq qadoq, oyoq izi, oyoq osti, kurakoyoq(li), bo‘g‘imoyoq(li), sakkizoyoq*.

1-ma’no ishtirokida aniqlangan **sifatlar***: yolg‘izoyoq (so‘qmoq), oyoqsiz, oyoqli, uzun oyoq, kalta oyoq, yalangoyoq, oyoq yalang, suyuqoyoq, shumoyoq, yog‘och oyoq, yengil oyoq, chaqqon oyoq, qiyshiq oyoq, siniq oyoq, yassioyoq, maymoq oyoq, chalishoyoq, cho‘loq, oqsoq, kurakoyoq,*

bo‘g‘imoyoq, omoch oyoq, uchoyoq, poydor, poyma-poy, poyintar-soyintar, poyko‘p, poymol, yurimsak, yurishli, chopqir,

O‘zbek tilida 1-ma’no bilan bog‘liq biz tomonimizdan o‘rganilgan **fe’llar**ga misollar: *oyoq bosmoq, oyoq osti bo‘lmoq, oyoq osti qilmoq, oyoqqa bosmoq, oyoqqa bostirmoq, oyoqda turmoq, oyoqqa turmoq, oyoqqa turg‘izmoq, oyoqqa qalqmoq, oyoqqa qo‘ymoq, oyoqdan yiqitmoq, oyoqdan qolmoq, yurmoq,yurgizmoq, bormoq, kelmoq, ketmoq, odimlamoq, qadam qo‘ymoq, bosmoq, toptamoq, tepkilamoq, ezmoq, ezg‘ilamoq, qadam tashlamoq, yugurmoq, chopmoq, (otni) choptirmoq, chopqillamoq, qochmoq, quvlamoq, izg‘imoq, kezmoq, sayr etmoq, yayov yurmoq, aylanmoq, qatnamoq, qadamlamoq, qadam bosmoq, qadam tashlamoq (otmoq), qadami tushmoq, qadam qo‘ymoq, qadamini uzmoq, qadam ranjida qilmoq, tashrif buyurmoq, sudralmoq, oqsoqlanmoq, sirpanmoq, sakramoq, tepmoq, (to‘pni ,oyoqni) uzatmoq, (oyoqni) chalmoq, chalishmoq, chalinmoq, (tik) turmoq, chordona qurmoq, depsinmoq, (to‘siqdan) xatlamoq, (suv, loy, qon) kechmoq, qadamlamoq (o‘lchamoq), tiz cho‘kmoq, cho‘kkalamoq, tizzalamoq, hakkalamoq, yo‘rg‘alamoq, lo‘killamoq* va h.k.

“Oyoq” maydonining 1-ma’nosiga doir **ravishlar**- *oyoq ustida, oyoq ostida, oyoqyalang, oyoqlab, qadam-baqadam, har qadamda, poyida, piyoda, poyi-piyoda, yayov.*

1-ma’noga doir quyidagi **frazeologik birliklar** aniqlandi- *oyog‘i olti, qo‘li yetti* (shodlikdan o‘zini sig‘dirolmaydi, xursand)*, oyog‘i kuygan tovuqdek* (shoshib qolmoq)*, oyog‘ini qo‘lga olmoq* (shoshilib, tez yurmoq)*, oyoq olish* (yurish-turish, hatti-harakat), *oyog‘i osmonda, oyog‘i osmondan keldi* (quladi, ishi chappa)*, og‘ir oyoq* (xomilador), *sovuq oyoq , shum oyoq* (yomon niyatda kelgan odam), *oyog‘i yoqmoq (yoqmaslik)* (yangi borgan joyiga xursandchilik, omad olib kelmoq(maslik))*, oyog‘ida oyoq qolmaslik* (charchamoq*), suyuq (engil) oyoq, oyog‘i yengil* (salb. buzuq, foxisha)*, yolg‘iz oyoq yo‘l* (so‘qmoq*), oyoq-qo‘l* (chaqqon, dastyor*), oyoq osti qilmoq* (hor qilmoq*), oyoq uchi bilan ko‘rsatmoq* (mensimaslik, nazarga ilmaslik*), oyoq tiramoq* (o‘z aytganida qattiq turib olmoq), *oyog‘i tortmaslik* (borishni xohlamaslik)*, oyoq uzatmoq, oyoq cho‘zmoq* (1. ko‘ngli tinchimoq, g‘am-tashvishdan xoli bo‘lmoq. 2. o‘lmoq, jon bermoq), *oyoq chiqarmoq* (so‘roqsiz har tarafga boradigan bo‘lib qolmoq, tartibdan chiqa boshlamoq), *oyoq ostidan chiqmoq* (to‘satdan paydo bo‘lib qolmoq)*, oyoq qo‘ymoq* (biror ishga kirishmoq)*, yuziga oyoq qo‘ymoq* (kimsaning xohishiga qarshi, uning hurmati bilan hisoblashmay ish qilmoq) *oyog‘iga bolta urmoq* (asosini, zaminini bo‘shashtirib, halokatga yo‘llamoq, puturdan ketkizmoq), *oyog‘iga bosh urmoq, yiqilmoq* (panoh tortib yoki najot izlab kelmoq, sajda qilmoq), *o‘z oyog‘idan yitmoq* (o‘z ixtiyori bilan yo‘q bo‘lib ketmoq), *oyog‘idan tortmoq* (jinoyatda qatnashgan sheriklarini aytib berib, javobgarlikka totrttirmoq)*, oyog‘idan chalmoq* (hoinona zarar yetkazmoq*), oyog‘ini osmondan keltirmoq* (qulatmoq, ag‘anatmoq, o‘rnidan tushirmoq, ishini chappasiga aylantirmoq)*, oyog‘idan o‘t chaqnamoq* (shaxdam, epchil, abjir bo‘lmoq); *tuyog‘idan o‘t chaqnamoq* (ot, toyga nisbatan-tez va yengil chopadigan; uchqur) *oyog‘i qavarmoq*- yuraverib, qatnayverib charchamoq; *ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq* (aytganini darhol bajarilishini talab qilmoq, qistovga olmoq)*, yo‘liga yurmoq*-birovning aytganini qilmoq, *toptamoq* (xor qilmoq*), tuyog‘ini shiqillatmoq* (joyni tezlik bilan tark etmoq)*, oyog‘ida yozmoq* (xunuk xat bilan yozmoq*), itning keyingi oyog‘i bo‘lmoq* (kechikib kelmoq), *qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadi* (kimsasiz sahroga nisbatan)*, hoki-poyini ko‘zga surmoq* (e’zozlamoq, ardoqlamoq), *poyiga yiqilmoq, poyiga tiz cho‘kmoq, poyiga bosh urmoq* (yalinib-yolvormoq, uzr so‘ramoq, taslim bo‘lmoq)*, to‘pig‘ini yalamoq* (hushomad qilmoq)*, baxti (omadi) chopmoq* (bahti, omadi kelmoq); *betga chopmoq* (ra’yi-andisha qilmay, qattiq, shartta gapirmoq), *ko‘ngli chopmadi* (biror xatti-harakatni amalga oshirishga yuragi betlamadi, yuragi dov bermadi); *gap bilan chalmoq* (gap bilan uzib olmoq), *jin chaldi* (asab kasalligi tufayli og‘zi, yuzi qiyshayib qolgan, dardga chalingan kishiga nisbatan aytiladigan ibora); *kasal chaldi* (dardga yo‘liqdi); *tepsa tebranmas* (beg‘am inson);

O‘zbek tilida **1- LSV**ga doir quyidagi **paremiyalar** aniqlandi: *Ahmoq kalla oyoq charchatar; Bir oyog‘i to‘rda, bir oyog‘i go‘rda ; Ko‘rpangga qarab oyoq uzat; Yurgan oyoq yo‘l topar; Otga taqa qoqsa, baqa oyog‘ini ko‘taribdi; Bo‘rini oyog‘i boqar; Osmonga chiqsang- oyog‘ingdan, yerga kirsang–qulog‘ingdan; Do‘st boshga, dushman oyoqqa qarar;*

Tasosiativ birliklar ishtirokidagi **paremiyalar**: *Ishtoni yirtiq tizzasi yirtiqqa kulibdi; Aybi borning tizzasi qaltiraydi, Yurgan-daryo, o‘tirgan-bo‘yra; Sayoq yursang tayoq yeysan; Yurgan oyoqqa yo‘rg‘a yo‘liqar; Katta arava qay yo‘ldan yursa, kichik arava ham o‘sha yo‘ldan yuradi; Yomon bilan yurdim-qoldim uyatga, yaxshi bilan yurdim-yetdim murodga; Nomard bilan yurma-*

nomusingni bukma; Tiz cho‘kib yashagandan tik turib o‘lgan afzal; Dunyoni suv bossa to‘pig‘iga chiqmas; Buzoqning yugurgani somonxonagacha; Til yugurigi –boshga, qo‘l yugurigi –oshga; Yugurganniki emas, buyurganniki; Ikkovga birov botolmas, otliqqa yayov yetolmas;

2-LSV (buyumlarning yerga tayanib turadigan qismi, poyasi) **so‘z birikmalari** - *narvonning oyog‘i, stul (stol)ning oyog‘i, xontaxtaning oyog‘i, so‘rining oyog‘i, doskaning oyog‘i, sirkulning oyog‘, divanning oyog‘i, (tagida ko‘tarib turadigan qismi bor) ikki oyoqli skameyka, uch oyoqli stul, qiyshiq oyoqli stul, uch oyoqli narvon, cho‘yan oyoqli pechka, temir oyoqli so‘ri, g‘ildirak oyoqli karavot.*

3-LSV (oxir, odoq) **so‘z birikmalari**- *ko‘chaning oyog‘i, kuz kunlarining oyog‘i, ekinzorning oyog‘i, hikoyaning poyoni ;* fe’llar- *oyoqda qoldirmoq, oyoqlamoq, oyoqlanmoq, oyoqlantirmoq, oyoqlatmoq;* ravish- *oyoqda (so‘nggida)*

4-LSV (poygak) **so‘z birikmalari** – *uyning oyog‘i, xonaning oyog‘i (eshikka yaqin o‘rni),poygak, poygoh,poygumbaz, poydevor, poytaxt, poynov*

***5-LSV** (idish, qadah)* **so‘z birikmalari**- *bir oyoq bo‘za, birinchi oyoqni ga uzatmoq*

XULOSA

Demak, chog‘ishtiralayotgan tillarda oyoq konsepti leksik, frazeologik, morfologik, sintaktik va paralingvistik (noverbal) birliklar orqali lisoniy manzara olar ekan. So‘z turkumlari nuqtayi nazaridan ushbu konsept ot, fe’l, sifat va ravish so‘z turkumlariga mansub leksemalar orqali ifodalanadi. Ular borasida amalga oshirilgan statistik tahlil quyidagi natijalarni berdi:

1-jadval

	Ingliz tilida				**O‘zbek tilida**		
№	**So‘z turkumlari**	**“foot” semali so‘zlar soni**			**So‘z turkumlari**	**“Oyoq” semali so‘zlar soni**	**%**
1	Ot	63	39	**1**	Ot	52	73
2	Fe’l	68	42	**2**	Fe’l	56	
3	Sifat	23	14	**3**	Sifat	27	38
4	Ravish	8	8	**4**	Ravish	6	6
5	Jami	162		**5**	Jami	141	

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ingliz va o‘zbek tillari so‘z turkumlari orasida “oyoq” maydoni birliklarini ifoda etishda fe‘l so‘z turkumi dominant – verbalizator maqomida bo‘lsa, uning ikkinchi pog‘onasidan ot so‘z turkumi, uchinchi va to‘rtinchi pog‘onasidan sifat va ravish so‘z turkumlari o‘rin olgan.

Yuqorida tahlilga tortilgan lug‘atlar va turli uslublarga xos matnlar tahlili quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

2-jadval

	Ingliz tilida				**O‘zbek tilida**		
№	**Lisoniy birliklar**	***Foot* semantikasiga ega birliklar soni**	**%**	**№**	**Lisoniy birliklar**	***Oyoq* semantikasiga ega birliklar soni**	**%**
1	Frazema	135	24%	1	Frazema	141	25%
2	Frazoema	116	20%	2	Frazoema	114	20,3%
3	Leksema	128	22%	3	Leksema	112	20%
4	Sentensema	108	19%	4	Sentensema	112	20%
5	Morfema	42	7%	5	Morfema	36	6,4%
6	Parema	21	4%	6	Parema	17	3%
7	Tekstema	14	2%	7	Tekstema	20	3,5 %
8	Paralingvoyema	8	1,8 %	8	Paralingvoyema	7	1,2%
	Jami	572	100 %		Jami	559	100%

Statistik tahlil natijalariga asoslangan holda shunday xulosa qilish mumkinki, “oyoq” konsepti lisoniy manzarasini tashkil etuvchi birliklar orasida frazemalar va frazoema (fe’lli frazemalar) **dominantlik** maqomiga ega.

Leksema va sentensemalar ushbu tarkibda ikkinchi va uchinchi pog‘onani, morfema, parema va tekstemalar to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi pog‘onani, paralingvoemalar esa so‘nggi pog‘onani egallamoqdalar.

Yuqorida sanab o‘tilgan lisoniy birliklarni “oyoq” konseptining **lisoniy nominativ birliklari** deb ataymiz. Bu birliklar “oyoq” konseptiga xos ma’no va semalarning milliy lisoniy ifoda vositalaridir.

“Oyoq” konsepti verbalizatorlari “oyoq” arxisemasi (u ot orqali ifodalangan)ga tayangan holda bir maydonni tashkil etadilar. Bu maydonni biz oyoq konseptining nominativ maydoni deb ataymiz. Bu maydon turli til sathlariga mansub birliklar majmuidan iboratdir. Ko‘rinib turibdiki, *oyoq* nominativ maydoni mazmun va ifoda planiga ega. Ushbu maydonni tashkillovchi birliklar “oyoq” kontseptiga xos u yoki bu belgi–xususiyatlar ifodasi uchun xoslangan bo‘ladi. Boshqa so‘zlar bilan aytadigan bo‘lsak, ushbu, mental birlikning barcha belgi–xususiyatlari va semantikasini ifodalaydigan yagona birlikning bo‘lishi amrimahol.

Maydonni tashkillovchi birliklar uning markazida turuvchi oyoq arxisemasi atrofidan joy oladilar. Lingvokognitiv, funksional-semantik tahlillarga tayangan holda oyoq nominativ maydonini dominanta, yadro va periferiya (chet) qismlarga ajratdik. Ya’ni chog‘ishtirilayotgan tillarda maydon dominantasi maqomini frazemalar, uning yadrosini frazoema, leksema va sentensemalar, periferiyasini esa morfema, parema, tekstema va paralingvoemalar tashkil etadi.

Chog‘ishtirilgan *foot* va *oyoq* konseptlari belgi – xususiyatlari, mazmun mundarijasidagi o‘xshash va farqli jihatlar ingliz va o‘zbek tillari lisoniy manzarasida ham o‘z ifodasini topadi. Bu hol turli madaniyat va xalqlar olamni o‘ziga xos ko‘rish, idrok etish, tasavvur va obraz hosil qilish tarzi, olam va undagi narsalarni kategoriyalashtirish, kontseptuallashtirish va nomlash borasida tarixiy va milliy an’analarga egaligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Зацепина Е.А. Номинативное поле как объективация концепта. Вестник ВГУ. Серия: Филология. Журналистика.2007,№1-с.36 (Zatsepina E.A. Nominative field as the objectization of the concept. VSU Newsletter. Series: Philology. Journalism. 2007, Volume 1-p.36)
2. Ipsen, G. Der Alte Orient und die Indogermanen/ Festschrift fur W. Streitberg. Heidelberg, 1924.-p.225
3. Филичева Н.И. Синтактические поля.Высшая школа, 1977.-15 с.
(N.I.Filicheva. Syntactical fields.Visshaya shkola, 1977-p.15)
4. Гулыга Е.В, Шенделъс Е.И. Грамматико-лексические поля в современном немецком языке. М., «Просвещение», 1969- 8с.(Guliga E.V, Shendels E.I. Grammatical-lexical fields in modern German. Moscow, “Prosvesheniye”-p.8)
5. Попова З.Д. Семантико-когнитивный анализ языка. З.Д.Попова., И.А.Стернин.- Воронеж, 2006-226с (Popova Z.D. Semantical cognitive analysis of the language.Voronej,2006- p.226)
6. Комаров. А.П. О лингвистическом статусе казуальной связи. Алма-Ата. 1970. 240 с. (Komarov A.P. About linguistic status of the casual link. Alma-Ata.1970-p.240)
7. Oxford Dictionary of Advanced English. Oxford University Press. 10th edition. 2020- p.615
8. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь.Том 1. Москва: Советская энциклопедия, 1967. – 580 с.(Kunin A.V. English-Russian phraseological dictionary. Volume I. Moscow. Soviet Encyclopedia, 1967-p.580)
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2- том. Moskva. “Russskiy yazik” .1981.522 б. (Monolingual dictionary of Uzbek. Volume II, Moscow. “Russian language”. 1981-p.522)

Internet manba’lari:

1. www.oup.com/elt
2. www.relatedwords.io
3. www.dictionary.com
4. www.thesaurus.com/brows
5. www.dictionary.cambridge.org
6. www.macmillandictionary.com
7. www.marriam-webster.com